


2021- yil uchun Namangan viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilda Namangan viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda –YAHM) hajmi joriy narxlarda 34 479,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yil bilan taqqoslaganda 9,1 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2020- yildagi narxlarga nisbatan 112,6 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Namangan viloyatining qo'shgan hissasi 4,7 % ga yetdi.




2020-2021- yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2020- yil	2021- yil	
I. YAHM, jami	28 077,4	34 479,8	109,1
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	27 339,1	33 492,5	109,1
mahsulotlarga sof soliqlar	738,3	987,3	109,8
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	27 339,1	33 492,5	109,1
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	11 551,2	13 681,8	104,5
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	5 828,4	7 489,8	115,2
sanoat	3 779,6	5 022,9	117,9
qurilish	2 048,8	2 466,9	110,1
xizmatlar	9 959,5	12 320,9	110,8
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 929,1	2 434,5	113,1
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 325,5	1 749,6	121,8
boshqa xizmat tarmoqlari	6 704,9	8 136,8	107,9

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 11 892,5 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 6,8 % ga yuqoridir.

2020-2021- yillarda aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va o'sish sur'atlari





Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,1 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,9 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 40,9 % ni, sanoat tarmog'i 15,0 % ni, qurilish 7,4 % ni va xizmatlar sohasi 36,7 % ni tashkil qildi.

2020-2021- yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2020- yil	2021- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	97,4	97,1
mahsulotlarga sof soliqlar	2,6	2,9
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	42,3	40,9
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	21,3	22,4
sanoat	13,8	15,0
qurilish	7,5	7,4
xizmatlar	36,4	36,7
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7,1	7,3
tashish va saqlash, axborot va aloqa	4,8	5,2
boshqa xizmat tarmoqlari	24,5	24,2

2020-2021- yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)




● **Yalpi qo'shilgan qiymat**

● **Mahsulotlarga sof soliqlar**


YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 104,5 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 40,9 %), sanoatda – 117,9 % (15,0 %), qurilishda – 110,1 % (7,4 %), xizmatlar sohasida – 110,8 % ni (36,7 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 113,1 % (7,3 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa tarmog'ida 121,8 % (5,2 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 107,9 % dan (24,2 %) iborat bo'ldi.

2020-2021- yillarda YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % da)




YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,9 f.p. (2020- yilda – 1,6 f.p.), sanoat tarmog'i – 2,4 f.p. (2020- yilda – 1,9 f.p.) va qurilish tarmog'i – 0,7 f.p. (2020- yilda – 1,2 f.p.), xizmat ko'rsatish sohasi – 3,8 f.p. (2020- yilda salbiy 0,1 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,3 f.p. (2020- yilda – 0,5 f.p.)ga ko'paydi.

2021- yilda YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2021-yilda YAHM deflyatori indeksi 2020-yildagi narxlarga nisbatan 112,6 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ida – 113,4 % va sanoat tarmog'ida – 112,7 % qayd etildi.

2020-2021- yillarda YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilga nisbatan % da)



2021- yilda kichik biznesning YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

2021- yilda kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 73,5 %ni tashkil qildi (2020- yilda – 74,6 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

